e-ISSN 3060-5059
DOI: 10.67227


IJTIMOIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 10

2026



Founded in 2024

publishscience.uz | publish_science_journal@mail.ru

PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

ISSN 3060-5059 (Online)
Article / Original paper https://doi.org/10.67227/7y4sx645

QORAQALPOQ, QOZOQ VA QIRG‘IZ NASRIDA SAKRAL HAYVON OBRAZI VA HAYVON UVOLI MOTIVINING BADIIY INTERPRETATSIYASI

Azatova Jamila Azatovna
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti, doktorant.
e-mail: azatovajamila@mail.ru **ORCID**: https://orcid.org/0009-0003-9138-7473

Annotatsiya.
Maqolada A. Tajimuratovaning «Oltin g‘oz afsonasi», E. Aydabosinning «Ulıma» asarlari hamda Ch. Aytmatov va M. Shaxanovning «Cho‘qqida qolgan ovchining ohi» kitobidagi Xo‘jajash afsonasining nasriy interpretatsiyasida hayvon uvoli va sakral hayvon konsepsiyalarining mifopoetik tabiati qiyosiy-tipologik jihatdan tadqiq etiladi. Sakral hayvonning belgilari, taqiqni buzish oqibatlari va qahramonlarning ruhiy-psixologik kechinmalari qiyoslanadi. Sakral hayvon obrazlarining muqaddaslik belgilari, an’anaviy e’tiqodlar va taqiqlar bilan bog‘liq holda yaratilish xususiyatlari aniqlanadi. Mazkur obrazlar va hayvon uvoli motivining syujet, psixologik hamda axloqiy funksiyalari ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: hayvon uvoli, sakral hayvon, mifopoetika, qiyosiy-tipologik tahlil, taqiq motivi.

ХУДОЖЕСТВЕННАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ОБРАЗА САКРАЛЬНОГО ЖИВОТНОГО И МОТИВА ГРЕХА ПЕРЕД ЖИВОТНЫМ В КАРАКАЛПАКСКОЙ, КАЗАХСКОЙ И КЫРГЫЗСКОЙ ПРОЗЕ

Азатова Жамила Азатовна
Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза, докторант.

Аннотация.
В статье проводится сравнительно-типологическое исследование мифопоэтической природы концепций греха перед животным и сакрального животного на материале произведений А. Тажимуратовой «Легенда о золотом гусе», Э. Айдабосина «Улыма», а также прозаической интерпретации легенды о Ходжаджаше в книге Ч. Айтматова и М. Шаханова «Плач охотника над пропастью». Сопоставляются признаки сакрального животного, последствия нарушения запретов и душевно-психологические переживания героев. Выявляются особенности создания образов сакральных животных в связи с признаками священности, традиционными верованиями и запретами. Раскрываются сюжетные, психологические и нравственные функции данных образов и мотива греха перед животным.

Ключевые слова: грех перед животным, сакральное животное, мифопоэтика, сравнительно-типологический анализ, мотив запрета.

ARTISTIC INTERPRETATION OF THE SACRED ANIMAL IMAGE AND THE MOTIF OF MORAL WRONGDOING TOWARD ANIMALS IN KARAKALPAK, KAZAKH, AND KYRGYZ PROSE

Azatova Jamila Azatovna
Nukus State Pedagogical Institute named after Ajiniyaz, Doctoral Student.

Abstract.
The article presents a comparative-typological study of the mythopoetic nature of the concepts of moral wrongdoing toward animals and sacred animals in A. Tajimuratova’s The Legend of the Golden Goose, E. Aydabosin’s Ulıma, and the prose interpretation of the Khojajash legend in Ch. Aitmatov and M. Shakhanov’s The Hunter’s Lament over the Abyss. The study compares the characteristics of sacred animals, the consequences of violating taboos, and the emotional and psychological experiences of the characters. It identifies the distinctive features of sacred animal imagery in relation to sacredness, traditional beliefs, and prohibitions. The narrative, psychological, and moral functions of these images and the motif of wrongdoing toward animals are examined.

Keywords: moral wrongdoing toward animals, sacred animal, mythopoetics, comparative-typological analysis, taboo motif.

Kirish. Badiiy adabiyotda ovchilik mavzusi inson va tabiat o‘rtasidagi munosabatlarni, ovchining ruhiy olami hamda axloqiy pozitsiyasini ochib berishda muhim o‘rin tutadi. Hayvon uvoli motivi ishtirok etgan asarlarda ushbu munosabatlar muqaddas hayvonga munosabat, an’anaviy taqiqlarning buzilishi va buning oqibatlari orqali tasvirlanadi. Ovchining merganlik mahorati bilan o‘z ishtiyoqini jilovlay olishi o‘rtasidagi ziddiyat qahramonning xatti-harakatlariga

axloqiy baho berish uchun asos bo‘ladi. Shu nuqtayi nazardan, hayvon uvoli motivini tadqiq etish muqaddas hayvon obrazining mifopoetik tabiatini, uning syujet rivojiga va qahramon psixologiyasini ochib berishga ta’sirini aniqlash imkonini beradi.

Hayvon uvoli va sakral hayvon konsepsiyalari o‘zaro bog‘liq bo‘lsa-da, tahlilda ularning mazmuniy farqi hisobga olinadi. Sakral hayvon konsepsiyasi hayvonning muqaddas deb qabul qilinishi, alohida xususiyatlari va unga ozor yetkazish mumkin emasligi haqidagi tasavvurlarni qamrab oladi. Hayvon uvoli tushunchasi hayvonga nohaq ozor yetkazish yoki uni behuda nobud qilish gunoh sanalishi hamda bunday qilmish oqibatsiz qolmasligi haqidagi an’anaviy tasavvurni ifodalaydi. Tadqiqotda ushbu tushuncha taqiqni buzish, aybdorlik hissi va qilmish oqibatlarini anglash bilan bog‘liq holda o‘rganiladi. Shu sababli obrazning sakral belgilarini uning insonlar taqdiriga ta’siri bilan birgalikda o‘rganish zarur.

Tadqiqotning maqsadi tanlangan qoraqalpoq, qozoq va qirg‘iz adabiy materiallarida hayvon uvoli va sakral hayvon konsepsiyalarining mifopoetik tabiati, o‘zaro aloqadorligi hamda badiiy funksiyalarini qiyosiy asosda ochib berishdan iborat.

Tadqiqot obyekti sifatida olingan matnlarning janriy va kompozitsion xususiyatlari ham hisobga olinadi. Qirg‘iz adabiy materiali Ch. Aytmatov va M. Shaxanovning hammualliflikdagi kitobiga kiritilgan Xo‘jajash afsonasining nasriy interpretatsiyasi orqali qamrab olinadi. Bunda afsonaning suhbat tuzilishidagi o‘rni va yozuvchilarning inson hamda tabiat munosabatlari haqidagi qarashlarini ochib berishdagi funksiyasiga e’tibor qaratiladi.

MATERIALLAR VA METODLAR

Tadqiqot materialini A. Tajimuratovaning «Oltin g‘oz afsonasi», E. Aydabosinning «Ulıma» asarlari hamda Ch. Aytmatov va M. Shaxanovning «Cho‘qqida qolgan ovchining ohi» kitobidagi Xo‘jajash afsonasining nasriy interpretatsiyasi tashkil etadi. Tahlil uchun muqaddas hayvonga ziyon yetkazish, ovchilikdagi taqiqlarni buzish va buning oqibatlari tasvirlangan epizodlar tanlab olindi.

Tadqiqotda qiyosiy-tipologik va struktur-semantik tahlil metodlaridan foydalanildi. Epizodlar sakral hayvonning belgilari, muqaddas makon bilan aloqadorligi, ogohlantirish, taqiqning buzilishi va oqibatlarning baholanishi jihatidan qiyoslandi. Mifopoetik interpretatsiya asosida muqaddas qush, so‘zlovchi hayvon, tush va hayvon uvoli motivlarining syujet hamda psixologik funksiyalari o‘rganildi.

NATIJALAR

«Oltin g‘oz afsonasi»da sakral hayvon obrazi qushning alohida belgilari orqali yaratiladi. Uning inson tilida ovoz chiqarishi va qanotida oltin harflar bilan bitilgan arabcha yozuvlarning mavjudligi g‘ozni oddiy o‘ljadan ajratib, muqaddas mavjudot sifatida namoyon etadi. Akasi ogohlantirganiga qaramay, Tojiddinning qushni otishi taqiqni bilmasligidan emas, balki ovga bo‘lgan ishtiyoqini jilovlay olmasligidan kelib chiqadi. Qushning sakral belgilari u o‘ldirilganidan keyin qahramonlarda yuzaga keladigan qo‘rquv va aybdorlik tuyg‘ularini chuqurlashtiradi [1].

«Ulıma»da sakrallik muqaddas makon va ustoz omonati bilan bog‘lanadi. Oltinbekning Arasan hududidagi yovvoyi hayvonlarga tegmaslik, hatto daraxtini ham sindirmaslik haqidagi nasihati u yerdagi tirik mavjudotlarga alohida munosabatni belgilaydi. Ulımaning bo‘rini ustozi aytgan va bolalikdagi tushida ko‘rgan bo‘ri bilan bog‘lashi qahramonning e’tiqodi orqali ifodalanadi; matnda ularning aynan bir bo‘ri ekanligi tasdiqlanmaydi. «Қорадағы малдың иеси болса, даладағы аңның киеси бар» degan qoida ushbu e’tiqodning axloqiy mazmunini ochib beradi. «Oltin g‘oz afsonasi»da sakrallik qushning belgilari orqali namoyon bo‘lsa, «Ulıma»da makonga oid taqiqlar va bo‘rini himoya qilish harakati orqali ochiladi [2].

Xo‘jajash afsonasining nasriy interpretatsiyasida sakral hayvonning mifopoetik xususiyatlari kulrang echkining so‘zlashi va ovchini ogohlantirishi orqali namoyon bo‘ladi. U qolgan bir juft echkiga tegmaslikni o‘tinib, naslini davom ettirish uchun imkon so‘raydi. Hayvonning tilga kirishi uning yashashga intilishini bevosita ifodalaydi. «Oltin g‘oz afsonasi» va «Ulıma»da taqiqni inson bildirsa, ushbu afsonada uni hayvonning o‘zi aytadi. Ogohlantirishning ifodalanishidagi mazkur farq sakral obrazning har bir matnda o‘ziga xos badiiy usul bilan yaratilganini ko‘rsatadi [3; 189-b.].

«Ulıma»da ovchilikdagi axloqiy chegaraning buzilishi masalasi Tebegen va Ang‘arbekning taqdiri orqali ochib beriladi. Ular Ulımadan o‘rgangan merganlik mahoratini moddiy manfaat orttirishga yo‘naltirib, ustozning qanoat va mas’uliyat haqidagi nasihatlariga amal qilmaydi. Biroq asarda ovchilikdan daromad topishning o‘zi qoralanmaydi: Ulımaning o‘zi ham ovchilik mahsulotlarini sotadi. Asosiy konflikt foyda olishga intilishning qanoatsizlikka aylanishidan, merganlik mahoratining hayvonlarni haddan tashqari qirishga xizmat qilishidan kelib chiqadi [2].

Tojiddin va Xo‘jajashda ovga bo‘lgan ishtiyoqni jilovlay olmaslik ustunlik qilsa, Tebegen va Ang‘arbekda ushbu xususiyat moddiy manfaatga intilish hamda qanoatsizlik bilan bog‘lanadi.

«Oltin g‘oz afsonasi»da muqaddas qushga o‘q uzish bilan keyingi oilaviy fojia o‘rtasidagi bog‘liqlik Otamurodning ichki kechinmalari orqali chuqurlashtiriladi. Uning «Bir g‘ozning joni bir avlodning joniga teng ekan-da» degan so‘zlari boshiga tushgan qayg‘uni muqaddas qushga tajovuz qilishning oqibati deb tushunishini bildiradi. Bu fikrda qarindoshlarini yo‘qotish iztirobi bilan birga, hayvonning uvoliga qolishdan qo‘rquv va aybdorlik tuyg‘usi ham aks etadi. O‘q uzgan Tojiddin bo‘lsa-da, uning oqibatlari boshqa aka-ukalar va ularning ortida qolgan farzandlar taqdiriga ham ta’sir etishi fojia ko‘lamini kengaytiradi [1; 12-b.].

«Ulıma»da ham hayvonga yetkazilgan ziyonning oqibatlari uni sodir etgan shaxslarning o‘zi bilan cheklanmaydi. Bo‘ri bolalariga qilingan zo‘ravonlikdan keyin bo‘rilarning chorvaga hujum qilishi qishloq chorvadorlariga ham zarar yetkazadi. Ulıma chorvani himoya qilish uchun o‘sha bo‘rilarni o‘ldirishga majbur bo‘ladi. Voqealarning bunday izchilligi dastlabki zo‘ravonlikning yangi qirg‘inga olib kelganini ko‘rsatadi. «Oltin g‘oz afsonasi»da muqaddas qushni otishning oqibatlari oilaviy fojia orqali ifodalansa, «Ulıma»da hayvonga qilingan yovuzlikning zarari qishloq hayotiga ham ta’sir

ISSN 3060-5059 (Online)

etadi. Shu jihatdan har ikki asarda hayvon uvoli motivi bir insonning harakati boshqalarning taqdiriga ham ta'sir etishini ochib berishga xizmat qiladi [2].

Xo'jajash esa hayvonning iltimosiga quloq solmay, uni ta'qib qilishda davom etadi va qaytib tusha olmaydigan cho'qqida qoladi. Shu tariqa ovchining chorasiz ahvolga tushishi uning ogohlantirishga qaramay sodir etgan xatti-harakatlarining oqibati sifatida tasvirlanadi [3; 189-b.]. «Cho'qqida qolgan ovchining ohi» kitobida ushbu afsona yozuvchilarning insoniyatning tabiat oldidagi mas'uliyati haqidagi qarashlarini chuqurlashtiradi [3; 193-b.].

MUHOKAMA

Sakral hayvon obrazi va hayvon uvoli motivini o'zaro aloqadorlikda o'rganish ularning axloqiy mazmunini ochib beradi. Hayvonning alohida belgilari, muqaddas makon yoki uning ogohlantiruvchi so'zi unga bo'lgan munosabatni belgilaydi; taqiqni buzish oqibatlari esa ovchining xatti-harakatiga baho berish uchun asos bo'ladi.

Motivning psixologik funksiyasi qahramonlarning sodir bo'lgan voqeaga munosabati va keyingi harakatlari orqali aniqlanadi. Otamurod oilasi boshiga tushgan qayg'uni muqaddas qushni otish bilan bog'lab, ayriliq iztirobi bilan birga aybdorlik tuyg'usini ham boshdan kechiradi [1; 12-b.]. Ulıma o'zi o'rgatgan merganlik hayvonlarni qirishga xizmat qilganini anglab, o'zini mas'ul his etadi va yangi zo'ravonlikning oldini olishga intiladi [2]. Xo'jajashning pushaymonligi esa falokatga uchraganidan keyin yuzaga kelib, avvalgi xatti-harakatlarining oqibatlarini o'zgartira olmaydi [3; 189-b.]. Demak, hayvon uvoli haqidagi tasavvur Otamurodda qayg'u va aybdorlik tuyg'usini chuqurlashtirsa, Ulımada afsuslanish amaliy qarshilikka aylanadi, Xo'jajashda esa kechikkan pushaymonlik fojianing mazmunini kuchaytiradi.

Janriy va kompozitsion xususiyatlar ham umumiy motivning badiiy interpretatsiyasiga ta'sir etadi. «Oltin g'oz afsonasi» va «Ulıma»da hayvon uvoli motivi qahramonlarning xatti-harakatlari, ichki kechinmalari va taqdiri orqali ochib beriladi. «Cho'qqida qolgan ovchining ohi»da esa Xo'jajash afsonasi yozuvchilar suhbatiga kiritilib, insoniyatning tabiat oldidagi mas'uliyati haqidagi qarashlarini asoslashga xizmat qiladi. Shuning uchun asarlarning tipologik yaqinligi muqaddas hayvonga yetkazilgan ziyon bilan inson taqdiri o'rtasidagi bog'liqlikda namoyon bo'lsa, o'ziga xosligi mazkur bog'liqlikning syujet voqealari, psixologik tasvir va falsafiy suhbat orqali ochib berilishida ko'rinadi [3; 193-b.].

XULOSA

Har uch asarda sakral hayvon obrazi turlicha yaratiladi: «Oltin g'oz afsonasi»da qushning alohida belgilari, «Ulıma»da muqaddas makonga oid taqiqlar va e'tiqodlar, Xo'jajash afsonasida esa hayvonning so'zlashi va ogohlantirishi yetakchi o'ringa chiqadi. Hayvon uvoli motivi mazkur xususiyatlarni mensimaslik va taqiqni buzish bilan insonlar taqdirining o'zgarishi o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi.

Sakral hayvon konsepsiyasi obrazning muqaddaslik mazmunini belgilab, hayvon uvoli motivi uning syujetga ta'sirini chuqurlashtiradi. Ularning o'zaro aloqadorligi qahramonlarning qo'rquv, afsuslanish, aybdorlik va mas'uliyat tuyg'ularini ochib berishga xizmat qiladi. Tipologik o'xshashlik hayvonga yetkazilgan ziyon bilan inson taqdiri o'rtasidagi bog'liqlikda, o'ziga xoslik esa ushbu bog'liqlikni muqaddaslik belgilari, e'tiqod va afsonaviy syujet orqali interpretatsiya qilish usullarida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Тәжимуратова А. Алтын ғаз әпсанасы. – Нөкис: Жазыўшы, 2023. – 48 б.

2. Айдабосын Е. Ұлыма: хикаят // Әдебиет порталы. – 2025. – 20 қараша. – URL: https://adebiportal.kz/kz/news/view/esbolat-aidabosyn-ulyma-xikaiat__10000953.

3. Aytmatov Sh., Shaxanov M. Tik jar ústindegi ańshınıń zarı (Ásir aqırındaǵı sırlasıw). – Nókis: Qaraqalpaqstan, 2024. – 320 b.